



## QAHRAMON PORTRETIDA MILLIY RUHNING VOQELANISHI

Suyunova Zarina Muzaffar qizi,  
ToshDO‘TAU 3-kurs tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207217>

**Annotatsiya.** Milliylik asrdan asrga shakllanib, kamol topib boradigan, bitta millatga tegishli bo‘lgan milliy qadriyatlar yig‘indisidir. Millat o‘z qadriyatlari, urf-odat-u an‘analarini kelajak avlodga bus-butun holda yetqazsagina o‘zligini saqlab qolgan bo‘ladi. Madaniy meros hisoblanadigan milliy qadriyatlarimiz milliy ruhning asosiy ko‘rsatkichidir. Faqatgina bitta millatgagina tegishli bo‘lgan qadriyatlar, orzu-umidlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari milliy ruhni tarannum etadi. Tashqi taraflama ta‘riflangan qahramon o‘z ichki portretiga egaligi bilan ham asar syujetining qiziqarli borishini ta‘minlaydi. “O‘tkan kunlar” romani bosh qahramonlarining yurt boshqaruvi haqida o‘zlarining shaxsiy fikrlariga ega ekanligi, birdamlik va hajihatlik asosiy muammoga yechim sifatida ko‘rsatilishi asarning qiymatini oshiradi. Otabekning o‘zga millat davlat boshqaruvini o‘z yurtida qo‘llashi lozimligi haqidagi fikrlarida ham uning yurt boshqaruvida yangi usullarni tatbiq etishda hech nimadan cho‘chimaslik kerakligi ifodalanadi.

**Kalit so‘zlar.** Milliy ruh, Otabek, Kumush, tashqi portret, ichki portret, muallif g‘oyasi.

Adabiyot va san‘atda milliy ruhning ifodasi asosan xalqning tarixiy, madaniy, va ma‘naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi obrazlar orqali amalga oshiriladi. Bu obrazlarning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri – qahramonlardir. Qahramonlarning portreti va xarakteri, adabiyotda milliy ruhning voqelanishida muhim o‘rin tutadi. Qahramonlar xalqning umumiy orzu-umidlari, kurashlari va qahramonlik ma‘naviyatining aksidir. Ularning obrazlari milliy madaniyat, tarix va kelajakka bo‘lgan ishonchni ifodalaydi. Qahramonlarning adabiyotdagi o‘rni nafaqat bir shaxsning shaxsiy xususiyatlarini tasvirlashda, balki xalqning umumiy ruhiy holatini, orzu va intilishlarini ifodalashda ham katta ahamiyatga ega. Qahramonlar o‘z vaqtida xalqning eng yuqori qadriyatlarini, jismoniy va ruhiy kuchini, jasoratini, sadoqatini namoyish etadi. Qahramonlarning xarakteri, ayniqsa, xalqning o‘zligini tanish va mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shuning uchun, ularning portretlari milliy ruhning badiiy ifodasidir.

Badiiy adabiyot-insonlarning his tuyg‘ularini ifoda etuvchi badiiy san‘at turlarining biri hisoblanadi. Inson his qilayotgan inja tuyg‘ularini tasvirlashda har xil san‘at turlaridan foydalangandek, so‘zlar vositasidan ham unumli foydalanadi. So‘zlar hissiyotlarni to‘laligicha ifodalay oladi. Badiiy adabiyotda muallif xotiralari, o‘y-xayollari to‘g‘ridan to‘g‘ri shunchaki yozib o‘tilmaydi, balki asar qahramonlari hayotini tasvirlaydi. Asar qahramonlari hayoti muallif qo‘lidagi qalamning harakatiga



bog‘liq. Fransuz tilidagi “*portrait*” so‘zidan olingan portret atamasi o‘z tilimizda “*tasvirlamoq*” kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi. Portret – asar qahramonining so‘zlar vositasida yaratilgan tasviridir. Qahramonning tashqi ko‘rinishi, kiygan libosi-yu o‘zini tutishi, ichki dunyosi – bularning barchasi portretni tashkil etadi. Portret kitobxon tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Badiiy adabiyotda portretning bir qancha turlari bor: a) tashqi portret; b) ichki portret; d) psixologik portret. Bu portret turlari asar badiiyatini yanada mufassal ochib berish imkonini beradi.

Tashqi portret – qahramonning tashqi ko‘rinishini tasvirlaydi. Uning ijtimoiy holati, xarakteri haqida ma‘lumot beradi. Tashqi ko‘rinishi asar qahramonining biror bir millatga mansubligini ifodalaydi. O‘zbek romanchiligi maktabi asoschisi Abdulla Qodiriy o‘z asarlaridagi har bir so‘zni o‘z o‘rnida va o‘z vazifasida ishlatadi. “Uning qora zulfi par yostiqlarning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyruq jinggila kibrak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabi‘atning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o‘lturdi. Sariq rupoh atlas ko‘ynakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi bir oz ko‘tarilib turmoq-da edi. Turib o‘lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirg‘anib qo‘ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to‘zg‘ig‘an soch tolalari o‘rab olib jonso‘z bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko‘ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibiga tegishli bo‘lgan bu ta‘rifda yozuvchi milliy qadriyatlardan chiqmagan holda jonso‘z malakni tasvirlaydi. Atlas ko‘ylak esa milliylikimizni anglatuvchi kalit so‘zdir. Qizlarimizning bezagi bo‘lgan, chiroyiga chiroy qo‘shuvchi, ko‘zni qamashtirar darajada nafis bo‘lgan milliy matolarimiz – atlas va adras ayol-qizlarga ko‘rk baxsh etadi. Undagi har bir naqsh asrlar osha ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan urf-odat va qadriyatlarimizni ifodalaydi.

Ichki portret, odatda, qahramonning ichki, o‘zigagina tegishli bo‘lgan, o‘zigagina his qila oladigan shaxsiy hissiyotlarni yoritib beriladi. Adabiy qahramon orzu-umidlari, intilishlari, qo‘rquv va tashvishlari, ibo-hayosi, qo‘rquv va tashvishlari, andisha va tarbiyaviylik darajasi hisoblanuvchi ichki portret milliy ruhning bir qismi hisoblanadi. Otabekning Marg‘ilonga borganda qatnashgan ilk

## “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



mehmondorchiligida aytgan quyidagi gaplari uning shaxs sifatida yurtni naqadar o‘ylashiga, yurti kelajagi uchun qayg‘urishini ko‘rsatadi: Oramizda bu qo‘rqunch holatka bahaqqi tushunadirg‘an yaxshi odamlar yo‘q, bil‘aks buzg‘uchi va nizochi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chuquriga qarab tortadilar. Bu kungi qora chopon va qipchoq nizolarini sizga bir timsol o‘rnida ko‘rsatayin: o‘ylab ko‘rilsin, bu nizolardan bizga qanchalik foyda va qipchoq og‘aynilarg‘a nima manfaat hosil bo‘lmoq-da?— Faqat bundan foydalang‘uchilar ikki xalq orasiga adovat urug‘ini sochib yurg‘uchi bir necha ig‘vogar boshluqlarg‘inadir. Masalan, Musulmonqulni kim xolis odam, deb o‘ylaydir? — Uning yurt uchun qon to‘kishdan boshqa nimaga foydasi tegdi? Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab, kuyavi Sheralixonni o‘ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo‘y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o‘ldirib, o‘rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o‘zini mingboshi deb e‘lon qilib, aqlsiz bir go‘dakni (Xudoyorni) xon ko‘tarib el yelkasiga mindi. Tuzuk, agar Musulmonqul bu ishlarni bir yaxshi maqsadni kuzatib qilg‘anda, zolimlarni o‘rtadan ko‘tarib, yurtka osoyish berganda, unga kim nima deya olur edi? Holbuki, Toshkand tarixida misli ko‘rilmagan Azizbek kabi vahshiyini faqat shu Musulmonqul qo‘lidan oldi. Basharti, Musulmonqul chin inson bo‘lsa, insondan vahshiy tug‘ilganini hech kim eshitkan chiqmas. Modomiki, o‘z g‘arazi yo‘lida istibdod orqali el ustiga hukmron bo‘lg‘unchilar yo‘qotilmas ekanlar, bizga najot yo‘qdir, magar shunday g‘arazchilarni ular kim bo‘lsalar ham ish boshidan quvlash va ular o‘rniga yaxshi xolis odamlarni o‘tquzish najotimizning yagona yo‘lidir.”[1:8] Abdulla Qodiriy asari qahramoni tilidan o‘zining yurt boshliqlari istibdodidan dod deydi. Yurti o‘ylagan yo‘lboshchi xalqni behuda juvonmarg qilmasligini ta‘kidlaydi. Yurt boshqaruvidgi asosiy kamchilik sifatida ittifoqning yo‘qligida ko‘radi. Boshboshdoqlik yagona millatni tashkil etuvchi o‘zbek urug‘larining falokatiga sabab bo‘lishidan achinib yozg‘irishi Qodiriyning nechog‘lik yurt kishisi bo‘lganligidan dalolat beradi.

Psixologik portretida qahramonlarning milliy g‘oyalarga sodiqligi, uning qarorlar qabul qilishdagi ruhiy jarayon, shubha va hissiyotlar, orzu va ichki kurashlar milliy ruhni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Qahramonlar shaxsiy maqsadlarining o‘zgarishi xalqning o‘zgarishiga, uning tarixiy va madaniy salohiyatiga bo‘lgan e‘tiborni belgilaydi. “O‘tkan kunlar” romani voqealar rivojida Otabek Marg‘ilonga savdo-sotiq ishlari bo‘yicha borib Marg‘ilonlik Mirzakarim qutidorning yak-yu yagona qiziga oshiq bo‘lishi uning maqsadining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Kumushbibiga uylanishi esa asosiy voqealar eshigini ochib, Otabekning keyingi

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



taqdiri qay tarzda borishini belgilaydi. Toshkentda Yusufbek hoji va O‘zbekoyimning rayiga qarab Zaynabga uylanishi esa uning Marg‘ilondagi hayot tarziga putur yetkazadi. Dushmanlarining fitnalaridan ogoh bo‘lgach, ularga qarshi kurashda zafar qozonib, yana hayot tarzini yo‘lga tushurganda, kundoshlarning o‘zaro janjali va buning oqibatida Kumushning zaharlanib vafot etishi Otabekning keying taqdirini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Otabek do‘sti hunarmand Usta Alim bilan yurt himoyasida shahid bo‘lishi asar ichki psixologiyasini ochib beradi. Yurt Otabeklari elini, millatini himoya qilishda o‘z jonlaridan ham kechganligi, ammo bbirdamlik yo‘qligi natijasida mustamlakaga aylangani asar g‘oyasini aniq ko‘rsatadi.

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani qahramonlari portreti orqali o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, an‘analarini keng kitobxonlar ommasiga tanishtiradi. Asar qahramonlari orqali o‘quvchilar o‘z milliyligini, o‘zligini anglaydi, o‘z xalqining boy madaniy merosidan faxrlanadi. Asar qahramonlari portreti bir millatning milliyligini boshqa millat vakillariga tanitish vazifasini ham o‘taydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. -T.: Yangi asr avlodi, 2011
2. Boboyev T. Adabiyot nazariyasi asoslari. -T.: “O‘zbekiston”, -2002
3. Jabborov N. O‘tkan kunlarda milliy ruhiyat talqini. -T.: Sharq, 2019
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. -T.: O‘qituvchi, 2005
5. Quronov A. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: “Akademnashr”, 2010.